

## ISLOM HUQUQI RIVOJIDA AYOL OLIMALARNING TUTGAN O`RNI

Esonova Mehriniso Umidjon qizi

*O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi,*

*Yurisprudensiya (islom huquqi) 1-kurs talabasi Toshkent, O`zbekiston,*

**Annotatsiya:** *So`nggi yillarda islom huquqi rivojida ayol olimalarning o`rni tobora ortib bormoqda. Tarixda ayollar shariat(islom qonunlari)ni talqin qilish va qo`llashda katta rol o`ynagan. Ayol ulamolar islom fiqhi rivojida, xususan, oila huquqi, meros va xotin-qizlar huquqlari sohalarida muhim iz qoldirishgan. Ushbu maqola islom huquqi rivojida ayol olimalarning rolini o`rganishga bag`ishlandi va bu jarayonda asosiy o`rin tutgan ayrim taniqli ayollarni ko`rib chiqadi.*

**Kalit so`zlar:** *Islom huquqi, fiqh, Qur'on, hadis, qiyos, ijmo, tasavvuf, tafsir, tarix*

**Abstract:** *In recent years, the role of women scholars in the development of Islamic law is increasing. Throughout history, women have played a major role in the interpretation and application of Sharia (Islamic law). Women scholars have left an important mark on the development of Islamic jurisprudence, particularly in the fields of family law, inheritance and women's rights. This article examines the role of women scholars in the development of Islamic law and examines some prominent women who played a key role in this process.*

**Key words:** *Islamic law, jurisprudence, Qur'an, hadith, qiyas, ijma, Sufism, tafsir, history*

Tadqiqot maqsadi: Islom huquqining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan faqiha ayollarimizni e`tirof etish, ularning ilmiy meroslarini chuqur o`rganish va yangi O`zbekistonning uchinchi renessans poydevorini shakllantirishda ushbu olimalar kabi yosh xotin-qizlarimizni jamiyatda o`z o`rnini topishga shijoatlantirishdan iborat Materiallar va uslublar: Islom huquqi - islom dini asosida shakllangan huquq tizimidir. Ushbu huquq tizimi shariatning prinsiplari va qonunlari asosida yuritiladi va to`rt huquq manbalariga: Qur'oni Karim, Hadisi sharif, qiyos va ijmoqa tayanadi. Hozirgi zamonaviy davrda ayollar o`qituvchilik, ilmiy izlanishlar va huquqiy targ`ibot ishlarida faol rol o`ynayotganini aytish zamirida, islom huquqida ham ayol olimalarning o`rni e`tirof etilishi zarurdir. Ayol olimalar gender tengligi va ayollar huquqlarini yaxshiroq tadbiq qilinishida islom oila qonunchiligiga katta hissa qo`shganlar.

Quyida Islom huquqi fani sohasidagi ayol olimlardan ba`zilari taqdim etildi

:

1. Fotimai Zahro bintu Muhammad roziyallohu anho Payg`ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning qizlari va Islom dini tarixidagi eng ahamiyatli ayol olimalardan biri. Fotima binti Muhammad roziyallohu anhoning Payg`ambarimizdan rivoyat qilgan hadislar va Islom huquqi bo'yicha turli maslahatlari mashhurdir 2. Oisha bintu Abu Bakr roziyallohu anho Payg`ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning zavjai mutohharalari, qavmiga fikr bildiruvchi, ayol olimalarning birinchi qo'llanma yozuvchisi. Oisha roziyallohu anhuning rivoyat qilgan hadislar va fiqhiy (Islom huquqi) bilimlari katta e'tibor bilan o'qiladi.

3. Ummu Salama roziyallohu anho sahoba onalarimizdan va yetuk ayol olimalardan biri. Ummu Salama va Oisha roziyallohu anhumlar Payg`ambarimiz sallolohi alayhi vasallamning boshqa ayollariga qaraganda ko'proq hadislar rivoyat qilganlar. Ummu Salama roziyallohu anhuning 378 ta hadis rivoyat qilganliklari takidlanadi 4. Rabi'a al-Adaviyya al-Qaysiyya: Islom olamining oltin asri bo'lmish 8-asrda yashagan tasavvufiy ayol, olima va shoira<sup>1</sup>. Uning Islom huquqi, ma'naviyat va erkinlik bo'yicha fikrlari, erkak va ayollar orasidagi tenglik va insoniylik kabi qarashlari muhim ahamiyatga ega.

5. Fotima bintu Alouddin Muhammad Samarqandiy : Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy O`rta Osiyo buyuk faqihlaridan, Hanafiylik imomi, ulamolar orasida “Tuhfatul Fuqaho”(Faqihlar Tuhfasi) nomli hanafiy fiqhiga oid asari bilan mashhur bo'lgan olimdir. O'z davrining bu buyuk imomi o'zizlari bo'lmish qizlari Fotimani yoshligidan tarbiyalab olima va faqiha darajasiga yetkazgan. Fotima otasining “Tuhfatul Fuqaho” asarini yoddan bilgan. Manbalarda yozilishicha, Fotima fatvo berish huquqiga ega bo'lib, ushbu sohada otasi bilan hamkorlik qilib kelgan<sup>2</sup>. Ba'zan turmush o'rtog'i Abu Bakr Kosoniy xatoga yo'l qo'yganda uni tuzatgan<sup>3</sup> Shunday qilib, o'zbek qizi Fotima o'zining yuksak salohiyati va faqihaligi bilan ulamolar orasida dong taratgan. 5. Zaynab al-G'azzoliy (1917 yil 2 yanvar - 2005 yil 3 avgust) - misrlik musulima. U Musulmon ayollari jamiyati (Jamoat as-Sayyidaat al-Musulimaat) asoschisi bo'lgan<sup>4</sup>. Tarixchi Yevgeniy Rogan uni “islomiy ayollar harakatining kashshofi” deb atagan va u “Sayyid Qutbning eng nufuzli shogirdlaridan biri”<sup>5</sup> ekanini ta'kidlagan. Uning Islom huquqi va ayollar huquqlari bo'yicha yozgan kitoblari harakatlariga katta ta'sir qilgan

6. Maryam Jamila (1934-yil 23-may – 2012-yil 31-oktabr) islom madaniyati va tarixiga oid o'ttizdan ortiq kitobning amerika-pokistonlik muallifi hamda

<sup>1</sup> Smith, Margaret (2010). *Rabi'a The Mystic and Her Fellow-Saints in Islam*. Cambridge University Press. p. 252. ISBN 9781108015912.

<sup>2</sup> Islom huquqshunosligi, Markaziy Osiyo faqihlari. Abulhakam Shar'iy Juzjoniy. 221-bet

<sup>3</sup> “Al-Favoid”. 169-bet

<sup>4</sup> Kathleen, D. McCarthy (2001). *Women, Philanthropy, and Civil Society*. p. 237. ISBN 0253339189. Retrieved 31 October 2019.

<sup>5</sup> Rogan, Eugene L. (2009). *The Arabs: a history*. New York, NY: Basic Books. pp. 403–404, 427–428. ISBN 978-0-465-07100-5.

G'arb haqidagi yozuvlari bilan tanilgan islomning ayol ovozi.<sup>6</sup> U Nyu-York shahrida yahudiy oilasida tug'ilgan va 1961 yilda Islomni qabul qilishi va Pokistonga hijrat qilishidan oldin o'smirlik davrida yahudiylik va boshqa dinlarni o'rgangan<sup>7</sup>. Amerikadagi musulmon bo'lib o'tgan yetakchi ayol olim. Yozuvchining islom huquqi, ma'rifati va islomning g'oyaviy tafsilotlari bo'yicha yozgan asarlari tadqiqotchilar va talabalar tomonidan e'tibor bilan o'qiladi

Ayol olimalar Islom huquqi sohasida turli bilim va tadqiqotlar bilan shug'ullanishganlar. Ularning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda1. Fiqh: Ayol faqihalar Islom huquqi bo'yicha fiqhning turli masalalarini o'rganib, tafsilotlarini yozib o'tganlar. Bu masalalarga oilaviy huquq, taloq huquqi, meros huquqi, nikoh huquqi, taloqdan keyin bo'lgan jarayonlar kabi mavzular kiritiladi. Ularning tafsilotli fatvolari va tartiblari fiqh kitoblarida va qonun to'plamida ko'rsatilgan2. Hadis va Sunnat: Ayol olimalar hadis va sunnat asosida islom huquqi bo'yicha tadqiqotlar olib borishganlar. Ular Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning so'zlarini, amallarini va hayotlarini o'rganib, buning Islom huquqiga ta'siri haqida tafsilotlar yozib o'tganlar. 3.

Tafsir: Olimalar Qur'oni Karimning tafsiri va Islom huquqi orasidagi munosabatlarini o'rganib, Qur'oni Karim oyatlari orqali Islom huquqi mohiyatini ochib berganlar4. Tarix: Ayol muarixxalar Islom huquqi tarixini o'rganib, uning rivojlanishi, asosiy qonunlar va tartiblar, ayollar huquqlarining o'zgarishi va tarixiy tushunchalariga oid ma'lumotlar to'plaganlar

Bu faqat bir nechta misollardir va islom huquqi sohasidagi ayol olimalar soni juda ko'p. Ularning bilim va tadqiqotlari Islom huquqi fani rivojlanishida muhim omil bo'lgan va uning tushunchalarini yanada kengayishiga sabab bo'lgan. Umumiy aytganda islom huquqining rivojlanishida ayol olimalarning xizmatlari beqiyos

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, islom huquqi rivojida ulamo ayollarning o'rne katta bo'lgan va uni baholab bo'lmaydi. Islom dinining dastlabki kunlaridan to hozirgi kungacha ayollar Islom shariatining talqini va yetkazilishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ularning hissaları Islomning huquqiy va axloqiy asoslarini shakllantirishga yordam berdi va musulmonlar avlodlarini yanada adolatli va fuqarolik jamiyatiga intilishga ilhomlantirdi. Islom huquqi sohasi rivojlanishda davom etar ekan, ayol ulamolarning xizmatlarini e'tirof etish va hurmat ko'rsatish hamda ularning bu muhim ishda davom etishini qo'llab-quvvatlash har vaqt muhim ahamiyatga egadir. Shu jumladan, hozirgi yosh avlod xotin-qizlarimizni ulardan o'rnak olishga

<sup>6</sup> "Maryam Jameelah, 1934-2012". Thefridaytimes.com. Archived from [the original](#) on 2013-12-03. Retrieved 2013-09-06.

<sup>7</sup> "Maryam Jameelah Papers" (PDF). Manuscripts and Archives Division, [New York Public Library](#).

chaqirish, olimlarni o'zlariga ustoz, yo'lboshchi sifatida tanishlarini ta'minlash bizning ustuvor vazifamiz bo'lmog'i lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTAR RO'YXATI:

- 1 Rogan, Eugene L. (2009). *The Arabs: a history*. New York, NY: Basic Books. pp. 403–404, 427–428. ISBN 978-0-465-07100-5.
- 2 "Maryam Jameelah, 1934-2012". *Thefridaytimes.com*. Archived from the original on 2013-12-03. Retrieved 2013-09-06.
- 3 "Maryam Jameelah Papers" (PDF). Manuscripts and Archives Division, New York Public Library
- 4 Fahimineiad, Fahimeh; Trans. Zainab Mohammed (2012). "Exemplary Women: Lady Umm Salamah" (PDF). *Message of Thaqaalayn*. 12 (4): 121. Archived from the original (PDF) on 27 March 2014. Retrieved 1 May 2014.
- 5 Smith, Margaret (2010). *Rabi'a The Mystic and Her Fellow-Saints in Islam*. Cambridge University Press. p. 252. ISBN 9781108015912.
- 6 *Islom huquqshunosligi, Markaziy Osiyo faqihlari*. Abulhakam Shar'iy Juzjoniy. 221-bet
- 7 "Al-Favoid". 169-bet
- 8 Kathleen, D. McCarthy (2001). *Women, Philanthropy, and Civil Society*. p. 237. ISBN 0253339189. Retrieved 31 October 2019.